

TARJIMA TUSHUNCHASINING ASOSIY MOHIYATI

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Tarjimonlik fakulteti, 2401-guruh talabasi
Jo'raqo'ziyeva Zumradxon Qaxramonjon qizi
Ilmiy rahbar. **Xolboboyeva A.Sh.**
f.f.f.d(PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Tarjimonlik fakulteti
Ingliz tili amaliy tarjima kafedrası dotsenti
Azizakholboboyeva1611@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima tushunchasining asosiy mohiyati, kelib chiqishi, davri va uni o'rgangan olimlarning fikr-mulohozalari, tarjima nazariyasidagi ayrim qiyinchiliklar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tarjima, tarjimon, til, asliyat tili, tarjima tili, asliyat matni, tarjima matni, mohiyat, so'z san'ati.

Аннотация. В статье анализируется основная суть понятия перевода, его происхождение, период, взгляды ученых, его изучавших, и некоторые трудности в теории перевода.

Ключевые слова: перевод, переводчик, язык, исходный язык, переводной язык, исходный текст, переводной текст, сущность, искусство речи.

Annotation. This article analyzes the main essence of the concept of translation, its origin, period, the views of scholars who studied it, and some difficulties in translation theory.

Keywords: translation, translator, language, original language, translated language, original text, translated text, essence, art of speech.

Qadimdan dunyo xalqlari o'zaro tillashuvida ya'ni muloqot qilishlarida ma'lum darajada muammolar kelib chiqqan. Bunga ko'p millat va elatlarning bir-biri uchun tushunarsiz tillarda so'zlashuvi sabab bo'lgan. Mana shunday muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etuvchi omil tarjima va uni amalga oshiruvchi vosita tarjimon hisoblanadi. Shuning uchun tarjimini ikki til, tarjimonni ikki millat o'rtasidagi vositachi deb tushunishimiz mumkin.

O'zbekistonda tarjimonlik sohasining yirik namoyondalaridan biri bo'lgan G'. Salomov o'zining "Tarjima nazariyasiga kirish" asarida tarjimaga quyidagicha izoh bergan: "Tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligidadir". Bu fikrni mulohaza etgan holda tarjimaga so'z san'ati deb ta'rif bersak bo'ladi. Chunki o'zga tilda yoki o'zga tildagi ma'lumotni o'z tilidan qaytadan bayon etish, ma'noni to'liq yetkazib bera olish uchun

tarjimonga yuksak mahoratga ega bo'lish mas'uliyati yuklatilgan. G`. Salomov o'zining ushbu asarida tarjimaga ta'rif berishdan oldin quyidagi kichik voqeani keltirib o'tadi:

“Tarjima nima?

- Bir tilda yozilgan kitobni ikkinchi tilga o'girish, - deb javob beradi bir kishi. Boshqa odam esa shu ta'rifga e'tiroz bildiradi:

- Tarjima qilinayotgan narsa, bordiyu, kitob emas, balki og'zaki nutq bo'lsa-chi? Bunday taqdirdan: tarjima – bu bir tilda bayon qilingan fikrni boshqa tilda so'zlovchi kishilarga tushuntirib berishdan iborat.

- O'girilayotgan narsa unisi ham emas (kitob), bunisi ham emas (og'zaki nutq), balki – kinofilm, deb faraz qilaylik, - bahsga aralashadi uchinchi shaxs. – Filmlar ham tarjima qilinadi-ku, shunday emasmi? – deydi u. – Bas, tarjima bir tilda rol ijro etayotgan aktyorning nutqini ikkinchi, uchinchi va hakozi tillarga o'tkazish demakdir. Bunda o'sha aktyorning nutqiga uning xarakterlari, ichki kechinmalari, yuz ifodasi mos kelishi lozim. Aks holda...”

Bundan ko'rinadiki, tarjimoni olim aytganidek har kim o'zicha talqin qilishi mumkin. Yozuvchilar o'z asarlarini, shoirlar o'z she'rlarini, fiziklar o'z ixtirolarining qonuniyatlarini, tadbirkorlar o'zi ishlab chiqqan mahsulotlari haqidagi ma'lumotlarni boshqa tilga o'girish deb tushunadilar.

Q. Musaevning fikriga ko'ra, insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima – bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakli va mazmun birligini saqlagan holda, boshqa til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir. Darhaqiqat, tarjima bu – ijodiy jarayondir. Bir tildagi ijod mahsulini boshqa tilda yaratish ijodkorning ijod mahsulidir.

I.G'afurov esa "so'zlovchi nutqi, muallifning asari, turli hujjatlar va ma'lumotlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish yoki o'tkazish, boshqa tilga ularni tushunarli qilish tarjima deb ataladi," deb ta'kidlaydi. Bu yerda I.G'afurov va Q. Musaevning tarjima borasidagi fikrlarini umumlashtirgan holda tarjima yozma shakldagi va og'zaki nutqdagi matnni bir tildan ikkinchi tilga uning semantik, lingvokulturologik, pragmatik hamda lingvostilistika xususiyatlarini hisobga olgan holda o'girish, deya ta'rif berishimiz mumkin.

A. Rojoning fikriga ko'ra, “ikki til o'rtasidagi tarjima jarayoni tarjimon tomonidan biror asliyat tilidagi yozma matnni tarjima tilidagi yozma matnga, biror asliyat tilidagi og'zaki matnni boshqa tarjima tilidagi og'zaki matnga o'zgartirishdir.” P.Newmarkning talqiniga ko'ra, “kamdan-kam holatlarda, tarjima – biror matn ma'nosini boshqa tilga muallif nazarda tutgan yo'l bilan o'girishdir.” Bu bilan P.Newmark tarjima jarayonida muallif asliyat muhitini tarjima tiliga olib o'tilishida muallif e'tirof etgan fikrlardan tashqari o'z fikrlarini ham qo'llashi mumkin ekanligiga e'tibor qaratmoqda. Chunki, bir millatning faqat o'ziga xos bo'lgan tushunchalarni boshqa tilda yaratishda tarjimon

tarjima tili vakillarida mavjud bo'lmagan tushunchalarni turli izohlar bilan ham bildirib o'tishi mumkin.

Olimlarning tarjimaga bergan tavsif va ta'riflariga yonashgan holda tarjimani quyidagicha izohlash mumkin: tarjima asliyat matnidagi og'zaki yoki yozma shakldagi har qanday so'z, gap, matn va hokazolarning mazmunini, shaklini, lingvistik va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda, bir tildan ikkinchi tilga o'girish yoki o'tkazish jarayonidir. Bu jarayonda tarjimon nafaqat matnning ma'nosini, balki uning ma'lum bir til va madaniyatga xos bo'lgan kontekstini ham inobatga oladi, shuningdek, tarjima qilinayotgan tilda mavjud bo'lmagan tushunchalarni izohlar orqali tushuntirishga harakat qiladi. Tarjima jarayoni, shuningdek, muallifning asliyatdagi fikr va his-tuyg'ularini yangi til va madaniyatga moslashtirishni ham o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda tarjima nazariyasining rivojlanishi va bu borada turli ilmiy tadqiqotlar olib borilishi XX asrning o'ttizinchi yillaridan boshlangan. Shu davrdan tarjimashunoslikka bag'ishlangan ilmiy maqolalar chiqa boshlagan. Bu ishga qo'l urganlardan tarjimon va olim Sanjar Siddiq 1936 yilda "Adabiy tarjima san'ati" nomli asarini nashr ettirdi. Ushbu kitob O'zbekistonda tarjima nazariyasiga bag'ishlangan ilk ilmiy puxta asar hisoblanadi. O'sha davrda tarjima nazariyasiga bag'ishlangan asar va risolalar nashr etib, tarjimalarning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilgan insonlardan yana Sotti Husayn, Mannon Roik, Madamin Davron, S. Palastrov, M. Sal'ye singari amaliyotchi tarjimonlarni ham keltirishimiz mumkin. Bu davrni O'zbekistonda tarjimashunoslikning rivojlanishining ilk davri deb aytishimiz mumkin.

XX asrning 40-50 yillarida N.Vladimirovning "Rus tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimaning ba'zi masalalari", J. Sharipovning "Ruschadan o'zbekchaga poetik tarjimaning ba'zi problemalari", Ma'sud Rasuliyning "Vl. Mayakovskiy asarlari o'zbek tilida" singari tadqiqotlari yuzaga chiqdi. Shuningdek, A.Xojiakhmedov, Yu.Po'latov, A.Abdug'afurov, S.Salomova, E. Aznaurova va boshqalarning tadqiqotlarida tarjima tarixi va tarjima tanqidiga ancha keng o'rin ajratildi. XX asrning 60-yillaridan tarjimashunoslik yangi bosqichga ko'tarildi. 1965 yilda J. Sharipovning "O'zbekistonda tarjima tarixidan" deb nomlangan faktik materiallarga juda boy asari bosildi. Ushbu olimning 1972 yilda chiqqan "Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar" asari tarjima tarixi va badiiy mahorat sirlarini yoritishda yana bir qadam bo'ldi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab, tarjimashunoslik nafaqat tarjima nazariyasini o'rganish, balki tarjima amaliyotini tahlil qilish, tarjimonlarning san'ati va usullarini o'rganish bilan ham shug'ullandi. Bu davrda ilmiy tadqiqotlar yanada chuqurlashib, tarjima jarayonining turli jihatlari, shu jumladan, tarjima tanqidi, badiiy tarjima, shuningdek, tarjimonlarning ijtimoiy, madaniy roli haqida kengroq tahlillar olib borildi.

So'nggi yillarda o'zbek tilidan chet tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish jarayoniga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada davlatimiz tomonidan tarjima faoliyatini

rivojlantirishga va aynan o'zbek tilidan chet tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjimalar uchun qator davlat grantlari tashkil etilmoqda. Ana shu loyihalardan biri ITD-1-119 "O'zbek adabiyoti antologiyasini ingliz tiliga tarjima qilish va adabiyotlararo kommunikatsiya muammolari" mavzuidagi ilmiy-tadqiqot ishidir. 2012-2014 yillarga mo'ljallangan ushbu loyihaga ko'ra, o'zbek adabiyotining 18 ta durdona asarlari o'zbek tilidan ingliz tiliga bevosita tarjima qilindi. Ular quyidagilar: Abdulla Qodiriy "The Days Gone by" (O'tkan kunlar), "The Scorpion from Altar" (Mehrobdan chayon), Pirimqul Qodirov "Starry Nights" (Yulduzli tunlar), Babur va "Humoyun and Akbar" (Humoyun va Akbar), Utkir Hoshimov "Affairs of Life" (Dunyoning ishlari), Tilab Mahmud "The Transitory World" (O'tkinchi dunyo), Tulqin Hayit "The Faithful Queen" (Vafo malikasi), Odil Yoqubov "The Treasure of Ulughbek" (Ulug'bek hazinasi), Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek "Navoiy" (Navoi), Tokhir Malik "Devildom" (Shaytonat) Book 1,2,3,4,5, Muhammad Ali "The Devotees" (Sarbadorlar), "The Great Empire" (Ulug' saltanat), Chulpon "Night and Day" (Kecha va kunduz) va Gafur Gulom "A Naughty Boy" (Shum bola) asarlari. Bu asarlar tarjimonlar O.Mo'minov, I. To'xtasinov, E.Muratova, N. Qambarov, U.Yo'ldoshev, A.Hamidov tomonidan tarjima qilindi. Bunday ko'lamdagi katta tarjima ishlariga hali-hanuz qo'l urilmagan. Bu jarayon o'zbek tilidan bevosita ingliz tiliga tarjima faoliyatini ilk deb o'ylashimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin ki, O'zbekiston tarjima amaliyoti tarixida jahon adabiyoti durdonalari asliyat tilidan o'zbek tiliga asosan, bilvosita til, ya'ni rus va boshqa tillardan tarjima qilingan bo'lsa, Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng asliyat tilidan tarjima tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima va o'zbek tilidan ingliz, rus, nemis, koreys, xitoy va boshqa chet tillarga ham to'g'ridan-to'g'ri tarjima amaliyotlari rivojlanmoqda. Bu jarayon tarjima tilida asliyat tilining mazmunini yana-da aniqroq tushunishga va imkoni boricha asliyat muhitiga yaqinlashishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati :

1. F.Саломов. Тарэма назариясига кириш. "Ўқитувчи" нашриёти. Тошкент, 1978 йил. 93-бет.
2. Қ. Мусаев. Таржима назарияси асослари. "Фан" нашриёти. Тошкент, 2005 йил. 8- бет
- 3..Ғафуров И. Таржимон мутахассислигига кириш. – Т.: Мехридарё, 2008. –Б.5.
4. Rojo A. Step by Step: A Course in Contrastive Linguistics and Translation. – Peter Lang, 2009. – P.25
6. Newmark P. A Textbook of Translation. – London : Prentice Hall, 1988/1995. – P.5.